

XORIY MAMLAKATLAR PARLAMENTI TUZILMALARI TIZIMIDA QO'MITALARNING ROLI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Konstitutsiyaviy huquq kafedrası dotsenti v.b

Orcid: 0000-0002-3034-7334

e-mail: fmadiyev92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16940133>

Annotatsiya: Maqolada xorijiy mamlakatlar parlamentlaridagi qo'mitalarning huquqiy maqomi, funksiyalari va tashkiliy mexanizmlari, ularning qonunchilik samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Fransiya, Rossiya, Kanada, Malayziya, Ozarbayjon va Litva tajribasi asosida qo'mitalarning qonun loyihalarini dastlabki ko'rib chiqishi, parlament nazorati va siyosat ishlab chiqishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, "elektron parlament" konsepsiyasida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Qiyosiy tahlil O'zbekiston tajribasidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mitalarining ish faoliyatini modernizatsiya qilish, shaffoflikni ta'minlash va mustaqillikni kuchaytirish orqali demokratik boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: parlament qo'mitalari, qonunchilik jarayoni, sun'iy intellekt va elektron parlament, O'zbekiston parlamenti, qonun loyihalarini ko'rib chiqish.

Butun dunyo parlamentlarida qo'mitalar turli vazifalarni bajarish uchun tuziladi hamda malum bir vazifani bajaradi xususan , qonun loyihalarini dastlabki ko'rib chiqish, parlamnet nazoratini amalga oshirish yoki parlamentning maxsus teshiruvlarini amalga oshiradi.

Parlamentda deputatlarning professional ish ko'nikmalari aynan qo'mita yoki komissiyalardagi ishtiroki ko'ra o'sib boradi.¹

Sh.Zulfiqorov ta'kidlaganidek dunyoning ayrim mamlakatlarida bizning qonunchiligimizga ko'ra qonunchilik palatasi qo'mitalari amalga oshiradigan ishlar komissiya deb ataluvchi tuzilmalar tomonidan amalga oshiraldi².

Parlamentdagi komissiyalar yoki qo'mitalar odatda parlamentga saylov bo'lib o'tganidan so'ng tuziladi va palataning butun vakolat muddati davomida ishlaydi.

¹ Грызлов Б. В. Специализированные органы парламента: сравнительный анализ //Политическая экспертиза: ПОЛИТЭК. – 2009. – Т. 5. – №. 1. – С. 26-36.

² SH. X. Zulfiqorov.O'zbekiston Respublikasi Parlament huquqi: O'quv qo'llanma (To'ldirilgan va yangilangan qayta nashr) –Toshkent.: TDYuI nashriyoti, 2013. – 222 bet.

Jahon tajribasini tahlil qilganimizda parlament qo'mitalari davlat boshqaruvining asosiy tarmoqlari, masalan, moliyaviy, mudofaa masalalari, tashqi ishlar va davlat hayotining barcha jabhalarini tashkil qiluvchi qo'mitalar tuzaldi. Masalan, Shvetsiyaning Rikstagida 15 ta doimiy qo'mitalar, tashkil qilingan va ularning soni ijro etuvchi hokimiyatdagi vazirliklarning soni bilan mutanosib bo'ladi³.

Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda parlament qo'mitalaring soniga cheklov o'rnatilmagan va qo'mitalari soni parlament tarkibiga va ish yuklamasiga qarab chegaralanadi (Germaniya, Novergiya, Yaponiya va boshqalar). Qonun bilan parlamentning qonunchilik palatasi qo'mitalar soni qattiy chegaralangan mamlakatlar misoliga O'zbekiston 11 ta Rossiyada 32 ta, Fransiya 6 ta qo'mitalar bor.

Fransiya parlamentining quyi palatasi bo'lmish Milliy majlis oltita doimiy komissiya(qo'mita) mavjud va ularning yunalishi aniq qilib belgilangan:

- 1) *madaniyat, oila va ijtimoiy masalalar bo'yicha;*
- 2) *tashqi ishlar bo'yicha;*
- 3) *milliy mudofaa va qurolli kuchlar bo'yicha;*
- 4) *moliya, iqtisodiyot va rejaning umumiy muammolari;*
- 5) *konstitutsiyaviy qonunlar, Qonunchilik va respublikani umumiy boshqarish;*
- 6) *ishlab chiqarish va almashish.*

Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi qo'mitalari demokratik boshqaruvning muhim institutsional elementlaridan biri sifatida qaraladi. A.Kerimovning fikriga ko'ra qo'mitalar qonunchilik jarayonining texnik qismi uchun ma'sul deb takidlagan⁴.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda "elektron parlament" faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ko'rsatgichlari o'sib bormoqda. Xususan, Parlamentlararo Ittifoqning 2020-yilgi dunyo "elektron parlament" hisobotini tayyorlashda ishtirok etgan 116 mamlakat parlament vakillaridan olingan ma'lumot bo'yicha, mamlakatlarning 10 foizida sun'iy intellektdan foydalanishini bildirgan.⁵

Mazkur jarayon dunyo davlatlarida so'nggi yillarda ancha ommalashmoqda. Xususan, 2020 yil 4 sentyabrda Uels hukumati "Yangi Uels sun'iy intellekt

³ Kerr Jr H. H. The structure of opposition in the Swiss Parliament //Legislative Studies Quarterly. – 1978. – С. 51-62.

⁴ Керимов А.А. Ретроспективный взгляд на эволюцию теории и практики парламентаризма в России //Вестник Томского государственного университета. История. – 2018. – №. 54. – С. 45-52.

⁵ Муминов А.Г. "To the Way of Informed Society", Журнал: Scienceweb academic papers collection, 2019, №1, P. 9764-9770



strategiyasini” qabul qildi. Unda parlament faoliyati va qaror loyihalarini ishlab chiqishda sun’iy intellektdan foydalanish, qo’llash bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar keltirilgan.⁶ Mutaxassislar sun’iy intellekt o’z rivojlanish davrining ikkinchi bosqichida ekanligini ta’kidlamoqda. Ya’ni ushbu bosqich ma’lumotlarga asoslangan bo’lib, bu yerda algoritmlar ma’lumotlardan foydalangan holda o’zlarini o’qitish orqali o’z ish faoliyatini mustaqil ravishda yaxshilashga qodir.

“Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi qo’mitalari haqida”gi Ozarbayjon Respublikasi qonunida 1-moddasida Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi qo’mitalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritish asoslari belgilangan shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasiga asosan, Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi (keyingi o’rinlarda “qo’mitalar” deb yuritiladi) qo’mitalarni tashkil etadi. Ushbu qo’mitalar qonunchilik tashabbusi tartibida Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisiga kiritilgan qonun va qaror loyihalarini dastlabki tartibda ko’rib chiqish, ularni muhokama uchun Majlisga kiritishni ta’minlash hamda ushbu Qonunda belgilangan boshqa vazifalarni bajarish maqsadida faoliyat yuritadi.

Qo’mitalarning huquqlari, tashkil etish tartibi, vakolat muddati, faoliyat prinsiplari, tarkibi, yig’ilish o’tkazish tartibi, rais va rais o’rinbosarlarining vakolatlari Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisining “Ichki nizomi”ning 35–39-moddalarida belgilangan. Bunga ko’ra Qo’mita quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan qonun va qaror loyihalarini dastlabki ko’rib chiqishni tashkil qiladi va ularning Majlisda ko’rib chiqilishi yuzasidan xulosa beradi; shuningdek, deputat tashabbusi bilan qonun va qaror loyihalarini tayyorlaydi. Prezident, Oliy sud, Naxchivan Muxtor Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida kiritilgan loyihalarni ham dastlabki tartibda ko’rib chiqadi va ular bo’yicha xulosa beradi;

2. Milliy Majlis qarori bilan umumxalq muhokamasiga qo’yilgan qonun loyihasiga kiritilgan takliflarni umumlashtiradi va Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisiga taqdim etadi;

3. Birinchi va ikkinchi o’qishda qabul qilingan qonun loyihasi ustida ishlaydi va uni ikkinchi va uchinchi o’qishga tayyorlaydi;

4. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasiga asosan, Milliy Majlis vakolatlariga kiruvchi masalalarni ko’rib chiqadi va u bo’yicha xulosa beradi;

⁶ World e-Parliament Report 2020. –p.7. <https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2021-07/world-e-parliament-report-2020>

5. Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi qonunchilik ishlari rejasiga oid takliflar kiritadi;

6. Har yili ikki marotaba — bahor va kuz sessiyalarining boshida qo'mita o'z faoliyati yuzasidan hisobot beradi.

Bundan tashqari Ozarbayjonda Qo'mita har bir sessiya boshlanishidan kamida bir hafta oldin sessiya davomida amalga oshiriladigan ishlar rejasini tasdiqlaydi. Qo'mita raisi va rais o'rinbosari Milliy Majlis apparati bilan hamkorlikda qo'mita ishlarini tashkil etadi, a'zolari zarur hujjatlar va materiallar bilan ta'minlaydi. Qo'mita raisi ish rejasining bajarilishini nazorat qiladi.

Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi quyidagi qo'mitalarni tashkil etadi:


- ✓ Huquqiy siyosat va davlat qurilishi qo'mitasi
- ✓ Mudofaa, xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasi
- ✓ Inson huquqlari qo'mitasi
- ✓ Tabiiy resurslar, energetika va ekologiya qo'mitasi
- ✓ Iqtisodiy siyosat, sanoat va tadbirkorlik qo'mitasi
- ✓ Agrar siyosat qo'mitasi
- ✓ Mehnat va ijtimoiy siyosat qo'mitasi
- ✓ Sog'liqni saqlash qo'mitasi
- ✓ Oila, ayollar va bolalar masalalari qo'mitasi
- ✓ Yoshlar va sport qo'mitasi
- ✓ Jamoat birlashmalari va diniy tuzilmalar qo'mitasi⁷

Kanada Quyi palatasi (House of Commons) qo'mitalar tizimi turlicha bo'lib, ularga doimiy (standing), qo'shma doimiy (standing joint), qonunchilik (legislative), maxsus (special), qo'shma maxsus (special joint) va kichik qo'mitalar (subcommittees) kiradi. Ular tarkibi, vakolati va faoliyat muddati bilan farqlanadi.

Jumladan, Doimiy qo'mitalar (Standing Committees) Kanada parlamentining quyi palatasidagi asosiy ishni amalga oshiradi. Har bir doimiy qo'mitada 10 nafar a'zo deputat bo'lib, ular barcha siyosiy partiyalar vakillaridan iborat. Doimiy qo'mitalarining asosiy vazifasi qonunchilik jarayoni ishtirok etadi va hukumat faoliyatini parlament nazoratini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kanada parlamentining Quyi palatsining (House of Commons) doimiy (standing) qo'mitalari quyidagi masalalarni o'rganishi va ular bo'yicha palataga hisobot berish huquqiga ega:

⁷ <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=15067>



Idoralardan kelgan tegishli qonunchilikni ko'rib chiqish;
Davlat dasturi va siyosat maqsadlarini tahlil qilish;
Xarajat rejalari va ularning samaradorligini tahlil qilish;
Idoralarning o'z maqsadlariga erishish darajasini (samaradorligini) baholash.

Bundan tashqari, palata qo'mitalarga qonun loyihalari, smetalar, tayinlovlar, hisobotlar va boshqa masalalarni ko'rib chiqish uchun doimiy ravishda yuboradi va domiy qomitalar vakolati doirasida ko'rib chiqishi lozim.⁸

Malayziya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, parlament nazoratida muhim o'rinni egallovchi tuzilma bu tanlov komissiyalari (Select Committees) hisoblanadi. Tanlov komissiyalari (Select Committees) Parlamentnig quyi palatsi a'zolaridan tashkil topgan kichik guruhlar bo'lib, ma'lum bir masalani chuqur o'rganish yoki nazorat qilish uchun tuziladi. Ular mutaxassislarni chaqirib ekspertlar guruhini tuzishi, hukumat rasmiylari ustudan nazorat qilish, hukumatdan zarur ma'lumotlarni talab qilishlari mumkin. Tanlab olingan komissiyalar o'z xulosalarini hisobot tarzida e'lon qiladilar va hukumat ushbu hisobotda keltirilgan tavsiyalarga javob berishi kutiladi.


Palata Qo'mitasi (House Committee) palata raisiga palataning qulayliklari, xizmat ko'rsatish tizimi va a'zolarining imtiyozlari bilan bog'liq barcha masalalarda maslahat beruvchi tuzilma hisoblanadi. Shuningdek, bu qo'mita yuqori palata bilan qo'shma yig'ilishlar o'tkazish yoki qo'shma qo'mita shaklida faoliyat yuritish huquqiga ega. Bundan tashqari, Davlat Hisoboti Qo'mitasi (Public Accounts Committee) ham bo'lib hukumat tomonidan parlament tomonidan ajratilgan mablag'larning ishlatilishi bo'yicha hisobotlarni, shuningdek, parlamentga taqdim etilgan boshqa moliyaviy hisobotlarni va davlat bosh auditor hisobotini tekshiradi.⁹

Demak. Malayziya tajribasidan ko'rinib turibdiki, Quyi palata o'ziga birlashtirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun bir paytda komissiya va qo'mitalarni ham tuzishi mumkin.

Shuningdek, Litva tajribasini o'rgansak Seym Konstitutsiyada belgilangan vakolatlariga kiruvchi qonun loyihalari va boshqa masalalarni ko'rib chiqish uchun o'z a'zolari orasidan qo'mitalar tuzadi. Qo'mitalar o'z o'rnida komissiyalar tuzishi ham mumkin va u nizomda belgilanadi. Xususan Seymda

⁸ https://www.ourcommons.ca/procedure/procedure-and-practice-3/ch_20_2-e.html

⁹ <https://www.parlimen.gov.my/glosari1.html?&lang=en>



Etika va tartib-qoidalar komissiyasi, Arizalar komissiyasi, Jinoyat razvedkasi bo'yicha parlament nazorati komissiyasi, Ozodlik va milliy tarixiy xotira masalalari komissiyasi, Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari bo'yicha komissiya, shuningdek, boshqa doimiy komissiyalar tuziladi. Bundan tashqari, qisqa muddatli yoki tor doiradagi masalalarni hal qilish, shuningdek, muayyan topshiriqlarni bajarish uchun Seym o'z a'zolari orasidan tergov, nazorat, audit, tayyorgarlik, loyihalash va boshqa maxsus (ad hoc) komissiyalar tuzishi mumkin.

Shuningdek, Seym qo'mitasi a'zosining huquqlari aholhid belgilangan, jumaladan, qo'mita a'zosi qo'mitada ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'ladi. U masalalarni ko'rib chiqish uchun taklif qilish, ularni tayyorlash va muhokama qilishda ishtirok etish, qo'mita yig'ilishlariga zarur shaxslarni taklif etishni taklif qilish, davlat muassasalarini tekshirish va ularning axborotlarini tinglash bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega. Qo'mita a'zosi qo'mita tomonidan olingan barcha hujjatlar va boshqa materiallar bilan tanishish va zarur hollarda ularni o'z faoliyatida foydalanish huquqiga ega.¹⁰

Ushbu tadqiqotimizning, 1.2 paragrifida ta'kidlaganimizdek, Fransiya Parlamenti boshqa demokratik davlatlar parlamentlari kabi, qonun chiqarish vazifasini doimiy faoliyat yurituvchi komissiyalar (ular "komissiyalar" deb ataladi) va vaqtincha tuziladigan komissiyalar yordamida bajaradi. Har bir palataning o'z komissiyalari mavjud. Qonun loyihasi rasmiy ravishda palataga kiritilgach, u komissiyaga yuboriladi. Loyihani muhokama qilish faqat komissiya hisobot berganidan keyin boshlanadi. Komissiya qonun loyihasiga tegishli o'zgartishlar kiritishni taklif qilishi mumkin, ammo bu o'zgartirishlarni qabul qilish yoki rad etish huquqi parlamentga tegishli.


Fransiya Konstitutsiyasiga ko'ra, doimiy komissiyalar soni bir nechta vazirlikka taalluqli qonun loyihalarini bir necha komissiyalarga yuborish orqali vaqt isrof bo'lishining oldini olish maqsadida oltitaga kamaytirilgan.

Milliy Assambleya (quyi palata)ning 6 ta doimiy komissiyasi:

- ✓ *Cherkov, Oila va Ijtimoiy Ishlar Komissiyasi*
- ✓ *Tashqi Ishlar Komissiyasi*
- ✓ *Milliy Mudofaa va Qurolli Kuchlar Komissiyasi*
- ✓ *Moliya, Iqtisodiyot va Rejalashtirish Komissiyasi*
- ✓ *Konstitutsiyaviy Huquq, Qonunchilik va Umumiy Ma'muriyat*

Komissiyasi

¹⁰ https://www.lrs.lt/sip/portal.show?p_r=35733&p_k=2



✓ *Ishlab chiqarish va Ayirboshlash Komissiyasi*

Doimiy komissiyalardan tashqari, har bir palata vaqtincha komissiyalarni ham tuzishi mumkin. Shuni ta'kidlashimiz lozimki Fransiya parlamneida doimiy komissiyalar juda kuchli ta'sirga ega organ. Ular muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan tushuntirish va asoslab berish uchun davlat xizmatchilari va vazirlarni chaqirish huquqiga ega. Bu xususiyati bilan ular Amerika Kongressining doimiy komissiyalariga o'xshashdir.

Doimiy komissiyalardan tashqari, har bir palata ayrim maxsus komissiyalarni ham tuzishi mumkin. Har bir maxsus komissiyada 30 tadan ortiq bo'lmagan a'zolar bo'lishi kerak, shundan 15 tadan ko'pi bir doimiy komissiyadan bo'lishi mumkin emas. Maxsus komissiyalarning ish tartibini Assambleya belgilaydi. Har qanday qonun loyihasi maxsus komissiyaga yuborilishi mumkin.¹¹

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash, ularni ko'rib chiqish, tahlil qilish va parlamentda muhokama qilishda ushbu qo'mitalarning o'rni beqiyos. O'zbekistonda qo'mitalar soni nisbatan kam (10 ta), ular ko'p tarmoqli funksiyalarni o'z ichiga oladi, ya'ni ayrim sohalar yagona qo'mita doirasida ko'rib chiqiladi.

Litva va Kanada parlamentlarida esa qo'mitalar soni ko'p (Litvada 15 dan ortiq, Kanadada 25 dan ko'p), bu esa sohalar bo'yicha chuqur ixtisoslashuvni ko'rsatadi. Har bir masalaga alohida qo'mita mas'ul bo'lganligi sababli qonunlar chuqur va keng muhokamadan o'tadi.

Kanada va Fransiyada parlament qo'mitalari mustaqil faoliyat yuritadi, ijro hokimiyatining faoliyatini nazorat qilishda keng vakolatlarga ega. Bu ochiq va shaffof qonunchilik tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fransiya, Litva va Kanada parlamentlarida ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, inson huquqlari kabi sohalarida alohida qo'mitalar mavjud bo'lib, bu qonunchilikning yuqori sifatda ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ayrim sohalar (masalan, fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari) bitta qo'mita doirasida birlashtirilgan bo'lib, bu ko'p hollarda sohalarning o'ziga xos muammolarini chuqur yoritishda cheklovlar keltirib chiqaradi. Malayziyada parlament islohoti asosida yangi "tanlov qo'mitalari" (select committees) tashkil etilmoqda, bu esa dolzarb masalalarni operativ tartibda ko'rib chiqish imkonini beradi.

¹¹ <https://www.yourarticlelibrary.com/essay/french-parliament-composition-function-and-role-of-commissions/44272>



O'zbekiston parlamentining qo'mitalar tizimi barqaror asosda shakllangan bo'lsa-da, ilg'or xorijiy tajriba bilan qiyoslanganda, uni yanada ixtisoslashtirish, ochiqlikni ta'minlash va mustaqillikni kuchaytirish orqali qonunchilik jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa demokratik islohotlarning amaliy samarasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

